

**BOSHLANGICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISHDA INTERAKTIV
DOSKADAN FOYDALANISH USULLARI**

Xasanova Mahfuza Sahibovna

University of Economics and Pedagogy

"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrası katta o'qituvchi

Ergasheva Durdona

Boshlang'ich talim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda **Ona tili** fanini o'qitishda doskaning, xususan **interaktiv doskaning** ahamiyati yoritilgan. O'quvchilarda yozma nutqni shakllantirish jarayoni asosan ona tili darslarida kechishi bois, ushbu fan uchun doskadan foydalanish ehtiyoji boshqa fanlarga nisbatan yuqori ekani ta'kidlanadi. Interaktiv doska esa nafaqat oddiy doskaning vazifasini bajarishi, balki dars jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning faolligini kuchaytirish hamda o'quv materiallarini ko'rgazmali tarzda yetkazishda keng imkoniyatlar yaratishi bilan alohida ahamiyatga ega ekani qayd etiladi.

Kalit so'zlar: Ona tili, dars, interaktiv doska, yozma nutq, ko'rgazma, o'qituvchi.

Методы использования интерактивных досок в обучении родному языку в начальных классах.

Аннотация: В данной статье освещается значение доски, в частности интерактивной доски, при преподавании предмета родного языка в начальных классах. Поскольку формирование письменной речи учащихся происходит главным образом на уроках родного языка, потребность в использовании доски здесь значительно выше, чем на других предметах. Отмечается, что интерактивная доска не только выполняет функции обычной доски, но и повышает эффективность урока, активизирует учащихся и предоставляет широкие возможности для наглядного объяснения учебного материала

Ключевые слова: Родной язык, урок, интерактивная доска, письменная речь, выставка.

**METHODS OF USING INTERACTIVE WHITEBOARDS IN MOTHER
LANGUAGE TEACHING IN PRIMARY GRADES**

Abstract: This article highlights the importance of the board, particularly the interactive whiteboard, in teaching the Mother Tongue subject in primary school. Since the development of students' writing skills mainly takes place during Mother Tongue lessons, the need for using the board is greater compared to other subjects. The article emphasizes that an interactive whiteboard not only performs the functions of a traditional board but

also enhances lesson effectiveness, increases student engagement, and provides extensive opportunities for delivering instructional materials in a visual and interactive manner.

Key words: *Native language, lesson, interactive whiteboard, teacher, written speech, exhibition.*

Hozirgi kunda ta'lim tizimida ko'pgina islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartining qabul qilinishi va amaliyotga tatbiq etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kun o'quvchisini barkamol shaxs sifatida tarbiyalash uchun birinchi navbatda o'qituvchining o'zi axborot kommunikatsion texnologiyalarini chuqur bilmog'i lozim. Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari Umumiy o'rta ta'lim fanlarini o'qitishda turli vositalardan foydalanish bugungi kun talablaridan biri sifatida dolzarb bo'lib bormoqda. Shuni hisobga olgan holda ta'lim sohasida olib borilayotgan izlanishlar anchagina keng qamrovli bo'lib qoldi. Bugungi kunda juda ham ko'p bora quloqlarga chalinayotgan tushunchalardan biri yangi pedagogik texnologiyalar va axborot kommunikatsion texnologiyalar hisoblanadi. Biz qanchalik fanni ildamlatib bormaylik davr talabi ham unga nisbatan oshib bormoqda. Shunisi ayonki, fandagi har bir yutuq bu izlanishlar oqibatida paydo bo'ladi. AKTni fanda ishlatish, uni amaliy tadbiqi fandagi bir yutuq sifatida qaralsa, undan mohirona foydalanish, uning barcha imkoniyatlarini hisobga olib, oxirgi darajada ishlatish tavsiya etilgan. Sabab oddiy, bugungu kun texnologiyasi, ertangi kun uchun eskiradi. Boshqacha qilib aytganda, yangisi uning o'rnini egallaydi. Kuzatishlarimiz natijasida ayon bo'lgan bir o'quv texnikasi – Interaktiv doska tushunchasi ko'pchilik uchun mavhum bo'lib qolmoqda. Bu qurulma asosan doska vazifasini bajarsada, boshqa qulayliklari juda ko'p. Darslarning samarali tashkil etilishi uchun xizmat qiladigan bu qurulmadan aynan ona tili darslarida foydalanish imkoniyati katta. O'quvchilar yozuv taxtasiga juda ham o'rganib qolishgan. Interaktiv doskalarda esa bunday yozuvlarni juda ham keng ishlatish mumkin. Yozuv taxtasiga yozilgan ma'lumot uni ko'chirib olgunga qadar yoki foydalanilgunga qadar turadi keyin o'chirib tashlash zarur. Interaktiv doskada esa buni bajarish oson: ma'lum ma'lumot yozilgandan keyin uni o'chirib tashlash uchun bitta buyruq yetarli. Yoki aksincha shu ma'lumotga qaytishga to'g'ri kelib qolsa, yana tiklash imkoniyati mavjud. Oddiy doskada esa buni qaytadan yozib chiqish lozim. Qo'shimcha ko'rgazmalarni ham bir vaqtning o'zida ko'rsatib ketish mumkin. Xohlasa, slaydlar ham namoyish qilinib, yana ortga qaytib mavzu bo'yicha yozilgan vazifalarni ishlatish mumkin. Yozuv taxtasiga yoziladigan bo'r, lattalarning ham keragi yo'q. Interaktiv doska bilan ishlanganda bu vazifalarni oddiy ruchka yoki qo'l bilan bajarish mumkin. Ona tili darslarini o'tilishida eng ko'p murojaat qilinadigan vosita bu doskadir. Chunki o'quvchilarning yozma nutqi ona tili fani bilan shakllanadi. Shunday ekan fanni o'qitilishi(o'rgatilishi) davomida boshqa raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari fanlarga qaraganda doskaga ehtiyoj katta. O'qituvchi o'quvchining yozma savodxonligini tekshirish jarayonida ham interaktiv

doskalar katta yordam beradi. Bu qurilmaning qulayliklari juda ko'p bo'lib dars jarayonlarida ochilaveriladi. Aytaylik, biz ba'zi so'zlarni alohida ko'rsatishimizga to'g'ri kelib qoldi. Odatda bu so'zni tagiga chizib qo'ysak ham bo'ladi. Biroq ona tili fanida tagiga chizilgan so'z o'ziga xos vazifa bajaradi. Bu esa o'ziga xos muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Interaktiv doskada bu muammoni hal qilish yo'li juda ham oson: uni qizil, sariq, oq yoki ko'k ranglarda ko'rsatiladi xolos. O'quvchilar harflarni va so'zlarni yozuv taxtasiga yozish jarayonida taxtaning ishdan chiqish holati: xiralashuvi, g'adir-budir bo'lib ketishi, bo'rni namlanib qolishi, taxtani yaxshi artilmaganligi dars sifatini tushuradi yoki bolalarda tushunarsiz holatni yuzaga keltiradi. Bu qurulmada esa, bunday muammoning o'zi bo'lmaydi. Sababi shundaki, uning ichki imkoniyatlari ancha keng. Insho matnlarida rejalar tuzilishiga alohida e'tibor qaratamiz. Shu bois matn va reja aniq va tartibli bo'lmog'i kerak. Har bir o'quvchi o'zining reja va matnini yozib berishiga to'g'ri kelsa, sakkizinchi bo'lib yozayotgan o'quvchining ishi ikkinchi o'quvchining ishiga o'xshashligini qaytadan ko'rsatib o'tishimiz ham mumkin. Birinchi betga sig'may qolgan matnning davomini ikkinchi betga yozib ketsak ham bo'ladi. Umuman olganda imkoniyatlari katta bo'lgan bu qurilmani ishlatish, uning darslarni samarali bo'lishini ta'minlashdagi o'rni, tushuntirish jarayonidagi qulayliklari, bir vaqtning o'zida bir nechta funksiyani bajarishi, o'quvchilarga tushunarsiz bo'lib qolgan jihatlarni va rasmlarni ko'rsata olishi bilan qo'llash mumkin.

Ona tili darslarida mavjud bo'lgan jadvallar va qoidalarni doska xotirasiga saqlab qo'ysak, uni bizga kerak vaqtda bemalol olib qayta ishlatishimiz mumkin. Bu esa qaytadan yozish uchun asos bo'lmaydi. Interaktiv doskaning yana bir qulaylik jihati shundaki, boshlang'ich sinflar ta'limida katta va kichik chiziqchalar kerak bo'ladi. Matematika darslarida esa, katakchalar kerak bo'ladi. Ona tili darslarida esa katta yo'l-yo'l chiziq lozim bunday doskalarni ham o'zida mujassam etgan bu doska yozish va o'chirish uchun juda qulaydir. raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, interaktiv doskadan foydalanish usullari o'ziga xos qulayliklarga ega bo'lib, dars samarasini tubdan yaxshilaydi. Uning barcha imkoniyatlarini ishga solib ishlatilsa, ayniqsa, ona tili darslarida juda qo'l keladi. Bir vaqtning o'zida bir nechta doskalardan va rasmlardan foydalanish, keraksiz deb hisoblangan ma'lumotlarni o'chirib qaytadan kerak bo'lib qolganda yana qaytarib ishlatish, rasmlarni kattalashtirib, kichraytirish, turli xil ranglarda yozish, o'quvchilarni jalb qila olish xususiyatlarini, turli ko'rinishlar va shakllarni bemalol ishlatish, misollar keltirishda juda qulay hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Adilov A.A. O'zbek tili darslarida interfaol doskadan foydalanish. — 2018.

2. Belyayeva N.N., Borodich M.V. Interfaol doska: o'zbek tilini o'qitishning yangi imkoniyatlari. — 2019.
3. G'aniyeva R.G. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: ona tili darslarida interfaol doska. // Pedagoglar.org, 30-to'plam, 2024 yil, aprel.